

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

NURMETOVA MUYASSAR JUMANAZAROVNA

**YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Nurmetova Muyassar Jumanazarovna

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish..... 3

Нурметова Муяссар Жуманазаровна

Совершенствование использования цифровых технологий в развитии зеленой экономики..... 27

Nurmetova Muyassar Jumanazarovna

Improving the use of digital technologies in the development of the green economy..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

NURMETOVA MUYASSAR JUMANAZAROVNA

**YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.4.PhD/Iqt4842 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy web-sahifasi (<http://instat.uz>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar: Aliqoriyev Olimhon Furqat o'g'li
Iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: Rasulova Dilfuza Valiyevna
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Abdullayev Munis Kurbanovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), professor.

Yetakchi tashkilot: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi huzuridagi DSc.19/04.07.2023.1.88.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning 2025-yil "7"- noyabr soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel. (99871) 239-03-05; faks (99871) 239-03-03; e-mail info@gsbe.uz

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida tanishish mumkin (UO'K:330.15:004:504.05 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel. (99871) 239-03-05; faks (99871) 239-03-03; e-mail info@gsbe.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" oktyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "22" oktyabr dagi 11-raqamli reyestr bayonnomasi).


D.X. Suyunov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


T.U. Qodirov

Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor


A.T. Kenjabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yondashuv tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunda global miqyosda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolarning kuchayishi sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy zarurat hamdir. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga kelib, global harorat 2°C ga ko'tarilishi natijasida jahon YaIMning 10-15% yo'qotilishi mumkin, bu esa 12-18 trillion AQSh dollari miqdoridagi iqtisodiy yo'qotishlarni anglatadi¹.

Jahonda raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotga o'tishda transformatsion ahamiyatga ega bo'lib, ular resurslardan samarali foydalanish, energiya tejamkorligi, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanishning boshqa jihatlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Jahon iqtisodiy forumining ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar 2030-yilga kelib, global issiqxona gazlari emissiyasini 15% gacha qisqartirish imkoniyatini yaratadi, bu esa yiliga, taxminan, 7,6 gigatonna CO₂ ekvivalentiga teng². Yashil iqtisodiyot bilan raqamli transformatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish – ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun – juda muhim. Chunki bu jarayon barqaror rivojlanish yo'lini belgilashga yordam beradi. Shu sababli, mamlakatlar iqtisodiy tiklanish strategiyalarini ishlab chiqishda yashil va raqamli transformatsiyaga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Bu yo'nalish hozirgi tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biridir.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. So'nggi yillarda "raqamli hukumat" tizimi, energetika va sanoatda aqlli monitoring, "yashil" raqamli infratuzilmalar va ekologik ma'lumotlar bazalarini yaratish loyihalari amalga oshirilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini boshqarishda IoT va sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar joriy etilmoqda. Shuningdek, raqamli yechimlar yordamida chiqindilarni qayta ishtash, suv va energiya resurslarini tejash, uglerod chiqindilarini kamaytirish yo'nalishlarida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, ma'lumotlar integratsiyasi, raqamli infratuzilma yetishmovchiligi va kadrlar salohiyatining pastligi kabi muammolar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu esa yangi indikator tizimlari va raqamli "green-tech" platformalarni ishlab chiqish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kompleks tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

¹ BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel (IPCC) hisoboti, 2022. <https://www.undp.org/>.

² World Economic Forum, "Digital Technology and the Planet", 2021. <https://royalsociety.org/-/media/policy/projects/digital-technology-and-the-planet/digital-technology-and-the-planet-report.pdf>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–6079-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli, 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli, 2022-yil 9-sentyabrdagi «Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-220-sonli farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli, 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli, 2019-yil 22-avgustda “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4422-sonli, 2020-yil 10-iyulda “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalar ijrosini ta‘minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiyaning nazariy asoslarini o‘rganish, raqamli texnologiyalarning barqaror rivojlanishga ta’siri, qayta tiklanadigan energiya va raqamli texnologiyalarning konvergentsiyasi natijasida yuzaga keluvchi yangi iqtisodiy paradigmalarga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari xorijlik olimlardan K.Schwab, J. Rifkin, J. Stiglitz, N. Stern, P. Hawken³ va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, MDH olimlaridan S.N. Bobylev, V.S. Vishnevskiy, I.A. Kuznetsov, A.V. Keshelava, V.G. Budanov⁴ kabi tadqiqotchilar raqamli-yashil

³ Schwab.K.The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum. 2016. Rifkin.J. The Third Industrial Revolution: How Lateral Power is Transforming Energy, the Economy, and the World. New York: Palgrave Macmillan. J.Stiglitz. E. The Price of Inequality: How Today’s Divided Society Endangers Our Future. New York: W. W. Norton & Company. 2012. N.Stern. Why Are We Waiting? The Logic, Urgency, and Promise of Tackling Climate Change. Cambridge, MA: MIT Press. 2015. P.Hawken.P. Regeneration: Ending the Climate Crisis in One Generation. New York: Penguin Books. 2021.

⁴Bobylev, S. N. (2019). Цифровая экономика и экологическая устойчивость.Вопросы экономики, (12), 5–25. Vishnevskiy, V. S., Kuznetsov, I. A., & Keshelava, A. V. (2020). Формирование цифрово-зеленой экономики: вызовы и возможности.Иновации,(3),45–52. Budanov, V. G. (2021). Цифровая трансформация и устойчивое развитие: концептуальные основы. Форсайт и STI, 15(2), 6–17.

transformatsiya jarayonlari hamda raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga salmoqli hissa qo‘shganlar.

Milliy iqtisodiyot sharoitida yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya masalalari va uning barqaror rivojlanishga ta‘siri S.S.Gulyamov, A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev, D.X.Suyunov, A.T.Kenjabayev, M.Asqarova, M.Axmadaliyeva, J.X.Burxonov, I.G‘ofurov, J.Jamolov, O.F.Aliqoriyev, Z.Otaqo‘ziyeva, V.D.Rasulova, B.K.Goyibnazarov, K.S.Karimova, N.Mahmudov, D.Meyliyeva, J.Odilov, M.Vapayev, A.V.Vaxabov, D.Sh.Yavmutov, A.M.Qodirov, M.Patxullayeva, Q.Rahimova, Sh.Rahmonov, B.B.Shoyqulov, S.Shomurodov⁵ kabi olimlarning tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Tadqiqotning ish bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish;

yashil iqtisodiyotni raqamlashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy mamlakatlarning tajribalarini tadqiq qilish;

O‘zbekistonda olib borilayotgan yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya siyosatini tahlil qilish;

raqamli texnologiyalardan yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda foydalanish holatiga ta‘sir etuvchi omillarni baholash;

yashil iqtisodiyotda zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash;

yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni ekonometrik modellashtirish;

yashil iqtisodiyotni raqamlashtirish asosida rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan loyihalari olingan.

⁵ Gulyamov, S.S., Ayupov, R.X. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. Toshkent: Iqtisod-moliya. 2020. Suyunov, D.X., Kenjabayev, A.T., Ro‘ziyev, A., Elektron tijorat. Toshkent: 2023. Maxmudov, N.M., Raqamli iqtisodiyot-qulay investitsion muhitni shakllantirishning asosi. Meyliyeva, D. O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali, 2024, 1-son. Shoyqulov, B.B. O‘zbekistonning “Yashil” iqtisodiy strategiyasi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 1(10):147-149. Yavmutov D. Sh., Burxonov J.X., Karimova K.S. Yashil iqtisodiyotni qo‘llashda xorijiy davlatlar tajribasi va uni O‘zbekistonda joriy qilish imkoniyatlari. “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal. 2023, №2(10). – 89-97 b. Yashil iqtisodiyot: Darslik. Vahabov A.V., Hojibakiev Sh.X. va boshqalar. – Toshkent: “Universitet”, 2020. – 2626. Vapayev M., Shomurodov S., Patxullayeva M. Yashil energetika kelajak energetikasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023., Asqarova, M., Jamolov, J. Yashil iqtisodiyot. Darslik. Toshkent-2022.

Tadqiqotning predmeti yashil iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy, iqtisodiy, statistik, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, sifatni baholash, SWOT tahlil, ekonometrik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“yashil iqtisodiyot” tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishda mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy jarayonlarni ekologik barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish, uglerod chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan mualliflik uslubiy yondashuvi ishlab chiqilgan;

yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni baholashning poliindekslari asosida O'zbekiston mintaqalaridagi mavjud holatni A daraja (80-100 ball), B daraja (60-79 ball), C daraja (40-59 ball), D daraja (20-39 ball), E daraja (0-19 ball) mezon qiymatlariga guruhlash orqali tabaqalashtirish taklif etilgan;

raqamli texnologiyalar va yashil (ekologik barqaror) iqtisodiyotni birlashtiruvchi Integratsiyalashgan raqamli-yashil iqtisodiyot modeli (IRYIM) ishlab chiqilgan;

raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobiga O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodologik asoslari hamda ilg'or rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini tahlili asosida yangicha mualliflik yondashuvlari ishlab chiqildi;

O'zbekiston mintaqalarida raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun daraja mezonlari asosida poliindekslardan foydalanish taklifi ishlab chiqildi;

raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyotni birlashtiruvchi, aqlli shaharlar va aqlli qishloq xo'jaligi tizimlari orqali resurslarni boshqarish va energiya iste'molini optimallashtirishda, shuningdek ekologik monitoring va resurslarni boshqarishda ahamiyatli Integratsiyalashgan raqamli – yashil iqtisodiyot modeli (IRYIM) ishlab chiqildi;

mamlakatning iqtisodiy va ekologik maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan shuningdek, davlat siyosatining samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga mos keladigan ekologik siyosatni amalga oshirishda ahamiyatli, iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan investitsiyalar xajmining 2030-yilgacha bo'lgan davrga prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo'llanilgan yondashuv, usullarning maqsadga muvofiqligi,

ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari va davriy hisobotlardan olinganligi, matematik-statistika usullari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni va samaradorligini baholash, raqamli yechimlar yordamida resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavflarni boshqarish imkonini beruvchi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish strategiyalarini shakllantirishda davlat siyosati va korporativ boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashda foydalanish mumkunligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati raqamli texnologiyalardan foydalanishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda, raqamli yashil iqtisodiyot, ekologik monitoring bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Yashil iqtisodiyot" va "Raqamli iqtisodiyot" kabi fanlar bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, ta'lim kontentlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiya va takliflarga asoslanib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ekologik barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan "yashil iqtisodiyot" tushunchasini yaxshilashga qaratilgan nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyot" nomli o'quv qo'llanma tayyorlashda foydalanildi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'i, guvohnoma №442358). Ushbu taklifni amaliyotga qo'llash natijasida yashil iqtisodiyotning konsepsiyadan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatdagi ahamiyatini takomillashtirish imkoni yaratilgan;

yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni baholashning poliindekslari asosida O'zbekiston mintaqalaridagi mavjud holatni A daraja (80-100 ball), B daraja (60-79 ball), C daraja (40-59 ball), D daraja (20-39 ball), E daraja (0-19 ball) mezon qiymatlariga guruhlash orqali tabaqalashgan yondashuv taklifi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 sanadagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 83-sonli qarori doirasida quyidagi maqsad va vazifalarga mos keladi:

7-maqsad. Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta'minlash;

9-maqsad. Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko'maklashish;

12-maqsad. Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni ta'minlash;

13-maqsad. Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni qabul qilish.

13.3-iqlim xavflariga qarshi tayyorgarlik, raqamli xabardorlik va monitoring tizimlari yaratish.

Dissertatsiyada ilgari surilgan taklif, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish usullarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berib, jamiyat barqarorligini ta'minlashga xizmat qilganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Barqaror rivojlanish markazi faoliyatiga joriy qilingan.(O'zbekiston Respublikasi Barqaror rivojlanish markazining 2025-yil 8-iyuldagi 554-son ma'lumotnomasi);

raqamli texnologiyalar va yashil (ekologik barqaror) iqtisodiyotni birlashtiruvchi "Integratsiyalashgan raqamli – yashil iqtisodiyot modeli" (IRYIM) ishlab chiqilgan. (O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligining 2025-yil 18-martdagi № 48766 guvohnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida raqamli transformatsiya va ekologik barqarorlikni bir tizimga birlashtirib, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish va atrof-muhitni himoya qilishda jamiyat uchun yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobiga O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasi Barqaror rivojlanish markazi faoliyatiga joriy qilinib, Markazning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi parametrlarini qabul qilishda hisobga olingan. (O'zbekiston Respublikasi Barqaror rivojlanish markazining 2025-yil 8-iyul 554-son ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, OAK tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy anjumanlarda 6 ta ma'ruza va tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 135 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, uni dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining approbatsiyasi, natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan..

Dissertatsiyaning **“Yashil iqtisodiyotni raqamlashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yashil iqtisodiyot tushunchasi va uning rivojlanish tendensiyalari, raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va ahamiyati hamda yashil iqtisodiyotni raqamlashtirish bo‘yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalari tadqiq etilgan.

Yashil iqtisodiyot tushunchasini o‘rganish bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy tenglikni ta‘minlash bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o‘sishni ekologik izni kamaytirish, chiqindilarni ozaytirish va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishni kengaytirish orqali amalga oshiradi. Bunday iqtisodiy model nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlaydi, balki kelajak avlodlar uchun ham resurslar xavfsizligini kafolatlaydi.

Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi – iqtisodiy faoliyatni atrof-muhitga zarar bermay amalga oshirishdir. Bu quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- resurslarni samarali boshqarish;
- tabiiy resurslarni tejamli ishlatish orqali ularning chidamliligini ta‘minlash;
- energiya samaradorligi;
- energiya iste‘molini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energetika manbalariga o‘tish;
- atrof-muhitdagi zararli chiqindilarni kamaytirish;
- zararli chiqindilarni qayta ishlash va kamaytirish yordamida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish;
- ijtimoiy adolat resurslardan foydalanishda adolatli taqsimot va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash.

Yashil iqtisodiyot bo‘yicha tadqiqotlar soni yildan-yilga oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu tushuncha turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilib, yagona to‘xtamga kelinmaganligini kuzatish mumkin (1-jadval).

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari dunyo miqyosida energiya ishlab chiqarishda barqarorlikni ta‘minlash va ekologik muammolarni hal qilishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylangan (1-rasm).

Yashil iqtisodiyot tushunchasiga berilgan ta'riflar⁶

№	Tadqiqotchilar	Berilgan ta'rif
1.	Pavan Sukhdev	Yashil iqtisodiyot bu – iqtisodiy o'sishni to'xtatmaydi, aksincha, uni rag'batlantiradi; ishsizlik va qashshoqlikni kamaytiradi va tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlaydi ⁷ .
2.	Tim Jakson	“Yashil iqtisodiyot bu – barqaror iste'mol va ishlab chiqarishga asoslangan, ekologik cheklovlarga hurmat ko'rsatadigan iqtisodiyotdir.” ⁸
3.	Kate Raworth	“Yashil iqtisodiyot - bu insoniyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga, sayyoramizning ekologik chegaralarini buzmaslikka intilgan iqtisodiy modeldir.”
4.	N.A. Vukovich	Yashil iqtisodiyot bu – iqtisodiy o'sishning yangi modeli bo'lib, u ikki asosiy mezonni qondirishi kerak: birinchidan, sifat jihatidan yangi o'sish yo'lini topish; ikkinchidan, inson yashashi uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhit sifatini yaxshilash ⁹ .
5.	Stanislav Edward Shmelev	Yashil iqtisodiyot – ekologik iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan, resurslardan samarali foydalanishni, ijtimoiy adolatni va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlaydigan iqtisodiy model.
6.	M.T. Asqarova, J.J. Jamolov va X.S. Xadjayev	“Yashil iqtisodiyot bu – yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga yo'naltirilgan, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi, “yashil energetika”ni rivojlantirish va “yashil investitsiya”lar faolligini kuchaytirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir ¹⁰ .
7.	S.N. Xashimova	Yashil iqtisodiyot bu – tabiiy resurslarni asrash, zaharli moddalar emissiyasini kamaytirish va kelgusi avlodlarning hayotini ta'minlashga yordam beradigan barqaror va ekologik to'g'ri rivojlanish modelidir ¹¹ .
8.	Muallif tomonidan taqdim etilayotgan ta'rif	Yashil iqtisodiyot – iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish jarayonlarini tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uyg'unlashtirishga intilish bo'lib, bunday iqtisodiyot atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadigan, tejamkor va bardavom rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

1-rasmda sanoat tarmoqlarida chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha global tashabbuslar ko'payayotganligini kuzatish mumkin.

⁶ Muallif tomonidan shakllantirildi.

⁷ <https://cdkn.org/story/pavan-sukhdev-speaks-about-the-concept-of-green-economy>.


⁸ Tim Jackson and Peter A. Victor. Green Economy at Community Scale. 2013. <https://metcalfoundation.com/wp-content/uploads/2013/10/GreenEconomy.pdf>.

⁹ Vukovich N.A. "Zelenaya ekonomika: opredelenie i sovremennaya ekologo-ekonomicheskaya model." Vestnik UrFU. Seriya: Ekonomika i upravlenie, 2018, №1, s. 128–145.

¹⁰ Asqarova M.T., Jamolov J.J., Xadjayev X.S. Yashil iqtisodiyot. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. 312 bet.

¹¹ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Toshkent: Ma'rifat, 2024.

Neft, gaz va ko‘mir kabi qazilma yoqilg‘ilar miqdori cheklangan. Dunyoda energiyaga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib borayotgan bir paytda, bu resurslar kamaymoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, yaqin kelajakda bu manbalar tugab qolishi yoki ulardan foydalanish juda qimmatga tushishi mumkin. Shu sababli, energetika sohasida barqarorlikni ta‘minlash uchun qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tish zarur.



1-rasm. Yashil iqtisodiyotga o‘tish sabablari va rivojlantirish yo‘nalishlari¹²

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari uglerod dioksidi kabi zararli gazlarning chiqarilishini keskin kamaytiradi, bu esa global isishning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Neft, gaz va ko‘mir yoqilganda atmosferaga katta miqdorda zararli gazlar, ayniqsa, karbonat angidrid (CO₂) va boshqa issiqxona gazlari chiqadi. Bu esa global isish va iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Iqlim o‘zgarishi natijasida suv toshqinlari, qurg‘oqchiliklar, dovullar va boshqa tabiiy ofatlar ko‘paymoqda. Ko‘plab mamlakatlar qayta tiklanadigan manbalarga o‘tish orqali chet eldan neft va gaz kabi an’anaviy energiya resurslariga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytirmoqda. An’anaviy energiya resurslarining tugab borishi. Neft, gaz va ko‘mir kabi qazilma yoqilg‘ilar miqdori cheklangan. Dunyoda energiyaga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib borayotgan bir paytda, bu resurslar kamaymoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, yaqin kelajakda bu manbalar tugab qolishi yoki ulardan foydalanish juda qimmatga tushishi mumkin. Shu sababli, energetika sohasida barqarorlikni ta‘minlash uchun qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bu manbalar uzoq muddatda energiya ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi. Qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi yangi texnologiyalar va infratuzilma yangiliklari yangi ish o‘rinlari yaratishga ham yordam beradi.

¹² Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.

Raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni bugungi kun ilmiy tadqiqotlari va amaliy faoliyatida ham dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Yashil iqtisodiyotning shakllanishi va barqaror rivojlanishi tabiiy resurslarni samarali boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta’minlashni talab qiladi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalarning ahamiyati alohida o‘rin tutadi, chunki ular ekologik va iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu mavzu doirasida yetakchi olimlarning tadqiqotlari va nazariy konsepsiyalari, shuningdek, ko‘plab mamlakatlarning amaliy tajribalari raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotga ijobiy ta’sirini chuqurroq yoritishga yordam beradi.

2-jadval

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi va O‘zbekiston uchun foydali jihatlar¹³

Mamlakat	Amaliy tajriba	O‘zbekiston uchun foydali jihatlar
Germaniya	- «GreenTech Atlas» orqali yashil texnologiyalarni aniqlash va monitoring qilish - Smart grid orqali energiya tejash	- Raqamli atlas yaratish orqali yashil loyihalarni aniqlash - Energiya tizimlarini aqllilashtirish
Yaponiya	- IoT asosidagi chiqindilarni boshqarish tizimi - Raqamli suv resurslari nazorati	- Mahalliy chiqindi boshqaruvini raqamlashtirish - Suv ta’minotini nazorat qilish tizimi
AQSh	- Big Data orqali ekologik monitoring - Blokcheyn orqali karbon kreditlari savdosi	- Ekologik muhitni monitoring qilish tizimini yaratish - Karbon kvotalar tizimini joriy qilish
Xitoy	- Raqamli texnologiyalar yordamida havo sifati nazorati - Raqamli «carbon footprint» platformalari	- Yirik shaharlarda havoni monitoring qilish - Aholining uglerod izini baholash tizimi

2-jadvalga qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston yashil iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash yo‘lida rivojlangan davlatlar tajribasidan samarali foydalanishi mumkin. Germaniya, Yaponiya, AQSh va Xitoy kabi mamlakatlar tomonidan qo‘llanilgan ilg‘or texnologik yechimlar (masalan, smart grid, IoT, Big Data, blokcheyn, GIS) O‘zbekistonda ham qo‘llanishi mumkin bo‘lgan amaliy modellar sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy holati tahlili**” deb nomlanib, mazkur bobda O‘zbekiston iqtisodiyotini yashillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy holati tahlili, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning SWOT tahlili, yashil

¹³ OECD hisobotlari "Green Growth Indicators", "Digital Economy Outlook" ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni baholashning scoring tizimini ishlab chiqish masalalariga to'xtab o'tiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotining "yashil" (ekologik barqaror) rivojlanishiga erishish zamon talabiga aylangan bo'lib, bu yo'nalishda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi strategik ahamiyatga ega. Bunda iqtisodiy jarayonlarni ekotizimga minimal zarar yetkazgan holda modernizatsiya qilish, energetik samaradorlikni oshirish hamda inson kapitalini rivojlantirish uchun raqamli vositalardan foydalanish muhimdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini amaliyotga joriy etish nafaqat atrof-muhit holatini yaxshilashga, balki yangi ish o'rinlari yaratish, ilm-fan yutuqlarini tatbiq qilish hamda ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi kabi yirik strategik loyihalari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini raqamlashtirish barobarida ular negizida ekologik omillarni ham inobatga olishni maqsad qilgan. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali energetika, transport, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida sarf-xarajatlarni kamaytirish, xomashyo resurslaridan unumli foydalanish hamda chiqindilar hajmini qisqartirish imkoniyati borligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish sohalarida so'nggi o'n yillikda ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida qator kamchiliklar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari kelajakda mamlakatda ko'zlangan maqsadlarga yetishga ko'maklashadi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini kompleks baholash, monitoring qilish va qaror qabul qilishni ilmiy asosda optimallashtirish maqsadida scoring (balli baholash) tizimi ishlab chiqildi. Scoring tizimi bu – nafaqat baholash vositasi, balki davlat siyosatini samarali shakllantirish, strategik qarorlarni asoslash va resurslardan maqsadli foydalanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan analitik instrumentdir.

Yashil iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirishda ayrim zaif tomonlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish orqali bu sohada barqaror yutuqlarga erishish mumkin. Avvalo, texnologik infratuzilmaning hududlar bo'yicha notekis rivojlanganligi muammosi mavjud. Ayniqsa, chekka va qishloq hududlarda internet sifati past, raqamli xizmatlar cheklangan. Bu masalani hal qilish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirishga sarmoyalarni ko'paytirish, internet tarmoqlarini kengaytirish, arzon va sifatli raqamli xizmatlarni joriy etish muhimdir.

2-rasmda yashil iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirishda ayrim zaif tomonlarga yechimlar taklifi ishlab chiqilgan bo'lib, ularni bartaraf etish orqali bu sohada barqaror yutuqlarga erishish mumkin. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida tashkilotlar o'rtasida hamkorlik va muvofiqlik yetishmaydi. Bu muammoni hal qilish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash, shuningdek, mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.



2-rasm. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish qichiliklari va ularni bartaraf etish yo'nalishlari¹⁴

¹⁴ Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.

Yashil texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar yetarli emas. Buni hal qilish uchun yashil investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish, masalan, yashil obligatsiyalar chiqarish yoki xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish lozim. Yashil texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish uchun zarur infratuzilma mavjud emas. Bu muammoni hal qilish uchun yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish va mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish zarur. Yashil iqtisodiyotga oid qonunlar va normativ hujjatlar yetarli emas. Bu muammoni hal qilish uchun yashil iqtisodiyotga oid qonunchilikni takomillashtirish va yangi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, shuningdek, ularni amalga oshirishni nazorat qilish zarur. Resurslardan samarali foydalanish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, aholini va bizneslarni bu borada rag'batlantirish muhimdir.

3-jadvalda raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotga ta'siri ballar asosida baholanishi keltirilgan. Ballar 0 dan 100 gacha bo'lib, ular besh darajaga bo'lingan. Eng yuqori baho A darajasi bo'lib, bu texnologiya yashil iqtisodiyot rivojiga sezilarli hissa qo'shishini anglatadi. B darajasi texnologiyaning muhim ekologik va iqtisodiy natijalarni ta'minlayotganini bildiradi. C darajasida texnologiya ijobiy natijalar beradi, lekin uni takomillashtirish kerak. D darajasi texnologiyaning ta'siri past bo'lib, u faqat cheklangan foyda keltiradi. Eng past daraja E bo'lib, bu texnologiya yashil iqtisodiyot talablariga umuman javob bermasligini bildiradi. Ushbu baholash tizimi texnologiyalarni qanchalik foydali va barqaror ekanligini aniqlashga yordam beradi.

3-jadval

Skoring tizimi orqali ballar va darajalar¹⁵

Ball	Daraja	Tavsif
80-100	A	Yuqori ta'sir: texnologiya yashil iqtisodiyot rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi
60-79	B	Sezilarli ta'sir: texnologiya muhim ekologik va iqtisodiy natijalarni ta'minlaydi
40-59	C	O'rtacha ta'sir: texnologiya ijobiy natijalar beradi, lekin takomillashtirish talab etiladi
20-39	D	Past ta'sir: texnologiyaning yashil iqtisodiyotga ta'siri cheklangan
0-19	E	Minimal ta'sir: texnologiya yashil iqtisodiyot talablariga javob bermaydi

4-jadvalda O'zbekiston viloyatlarida raqamli yashil texnologiyalarni joriy etish holati baholangan. Ushbu baholash asosida O'zbekiston hududlari bo'yicha yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning qo'llanilish darajasi bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. **A darajasi (80-100 ball):** Faqat Toshkent shahri bu darajaga yaqinroq bo'lib, bu yerda aqlli shahar texnologiyalari, aqlli elektr tarmoqlari, raqamli transport boshqaruvi va aqlli chiqindi boshqaruvi kabi ilg'or texnologiyalar keng

¹⁵ Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.

qo‘llanilmoqda, lekin shunga qaramay, Toshkent shahri havosining ifloslanish darajasi yuqoriligicha qolmoqda.

2. **B darajasi (60-79 ball):** Toshkent viloyati, Samarqand, Navoiy, Buxoro va Andijon viloyatlari bu darajaga erishgan. Bu hududlarda aqlli suv ta‘minoti, aniq dehqonchilik, qayta tiklanadigan energiya monitoringi va elektr transport ekotizimlari rivojlanmoqda.

3. **C darajasi (40-59 ball):** Qolgan viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bu darajaga to‘g‘ri keladi. Bu hududlarda asosan aniq dehqonchilik, aqlli suv resurslari boshqaruvi va qayta tiklanadigan energiya loyihalari boshlang‘ich bosqichda.

4. **D va E darajalari (0-39 ball):** Hozirgi vaqtda O‘zbekiston viloyatlari orasida bu darajalarga to‘g‘ri keladigan hududlar yo‘q, bu esa barcha viloyatlarda yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ma‘lum ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

4-jadval

O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha skoring natijasilari¹⁶

Viloyat	Umumiy ball	Daraja	Asosiy raqamli yashil texnologiyalar
Toshkent shahri	80	A	Aqlli elektr tarmoqlari, aqlli transport, aqlli binolar, raqamli chiqindi boshqaruvi
Toshkent viloyati	72	B	Aqlli suv ta‘minoti, aniq dehqonchilik, elektr transport ekotizimi
Samarqand viloyati	68	B	Aqlli turizm, qayta tiklanadigan energiya monitoringi, aqlli suv ta‘minoti
Navoiy viloyati	65	B	Kon sanoatida raqamli monitoring, qayta tiklanadigan energiya, aqlli elektr tarmoqlari
Buxoro viloyati	63	B	Aniq dehqonchilik, aqlli suv resurslari boshqaruvi, quyosh energiyasi monitoringi
Andijon viloyati	61	B	Elektr transport, aniq dehqonchilik, aqlli ishlab chiqarish
Farg‘ona viloyati	59	C	Aqlli ishlab chiqarish, aniq dehqonchilik, aqlli suv ta‘minoti
Namangan viloyati	57	C	Aniq dehqonchilik, to‘qimachilikda raqamli resurs boshqaruvi
Xorazm viloyati	55	C	Aniq dehqonchilik, aqlli suv resurslari boshqaruvi
Sirdaryo viloyati	52	C	Aniq dehqonchilik, aqlli elektr tarmoqlari
Jizzax viloyati	50	C	Aniq dehqonchilik, quyosh energiyasi monitoring
Surxondaryo viloyati	48	C	Aniq dehqonchilik, chorvachilikda raqamli texnologiyalar
Qashqadaryo viloyati	47	C	Neft-gaz sanoatida raqamli monitoring, aniq dehqonchilik
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	42	C	Orol dengizi monitoringi, qayta tiklanadigan energiya, aqlli suv boshqaruvi

¹⁶ Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.

5-jadvalda O‘zbekiston bo‘yicha quyosh fotoelektrik stansiyalari o‘rnatilishi tahlilini kuzatish mumkin. Respublika miqyosida quyosh fotoelektrik stansiyalarini o‘rnatish bo‘yicha belgilangan rejalar muvaffaqiyatli bajarildi. Obyektlar soni bo‘yicha 68,788 ta reja o‘rniga 99,450 ta obyekt o‘rnatildi, bu 145 foizni tashkil etadi. Jami quvvat bo‘yicha 759,6 MVt reja o‘rniga 987,01 MVt quvvat o‘rnatildi, bu 130 foizni tashkil etadi.

Obyektlar soni bo‘yicha eng yuqori natijalarni Xorazm viloyati 270 foiz bilan, Namangan viloyati 240 foiz bilan, Navoiy viloyati 214 foiz bilan va Samarqand viloyati 204 foiz bilan ko‘rsatdi. Quvvat bo‘yicha eng yuqori natijalarni Xorazm viloyati 190,3 foiz bilan, Samarqand viloyati 179,3 foiz bilan, Navoiy viloyati 176,6 foiz bilan va Farg‘ona viloyati 169 foiz bilan ko‘rsatdi. Toshkent shahri obyektlar soni bo‘yicha 53 foiz, quvvat bo‘yicha 92,7 foiz bilan eng past ko‘rsatkichni namoyish etdi. Surxondaryo viloyati quvvat bo‘yicha 97,8 foiz bilan rejani to‘liq bajarmadi, ammo obyektlar soni bo‘yicha 119 foizni ko‘rsatdi.

5-jadval

Respublika bo‘yicha Yashil energiya elektron platformasida quyosh fotoelektrik stansiyalarini o‘rnatilishi bo‘yicha ma‘lumot¹⁷

№	Hududlar nomi	JAMI O‘RNATILGAN QURILMALAR					
		OBYEKTLAR SONI			JAMI QUVVATI (MVT)		
		Reja	Amalda	Bajarilishi	Reja	Amalda	Bajarilishi
JAMI		68788	99450	145%	759,6	987	130%
1	Qoraqalpog‘iston	7129	7671	108%	34,2	44,1	129,2%
2	Andijon	7483	12834	172%	59,4	84,9	143,1%
3	Buxoro	3565	5058	142%	42,1	49,7	118,1%
4	Jizzax	2395	3496	146%	26,7	35,1	131,5%
5	Qashqadaryo	4068	5105	125%	54,2	69,5	128,3%
6	Navoiy	1969	4220	214%	32,1	56,6	176,6%
7	Namangan	3270	7856	240%	49,8	64,4	129,5%
8	Samarqand	4709	9605	204%	47,3	84,8	179,3%
9	Surxondaryo	5919	7071	119%	69,9	68,3	97,8%
10	Sirdaryo	1655	2452	148%	20,4	25,5	125,4%
11	Toshkent vil.	6977	11228	161%	76,8	99,5	129,6%
12	Farg‘ona	6070	10257	169%	55,4	93,6	169,0%
13	Xorazm	2492	6733	270%	33,8	64,3	190,3%
14	Toshkent sh.	11087	5864	53%	157,6	146,1	92,7%

Eng ko‘p quvvatga ega hududlar Toshkent shahri 146,1 MVt, Toshkent viloyati 99,5 MVt, Farg‘ona viloyati 93,6 MVt va Samarqand viloyati 84,8 MVt bilan. Eng ko‘p obyektlarga ega hududlar Andijon viloyati 12,834 ta, Toshkent viloyati 11,228 ta, Farg‘ona viloyati 10,257 ta va Samarqand viloyati 9,605 ta obyekt bilan yetakchilik qilmoqda

Qishloq hududlarida quyosh energetikasi tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Xorazm, Namangan, Navoiy kabi viloyatlarda rejadan ikki baravar ko‘p obyektlar o‘rnatildi. Shahar sharoitida Toshkent shahri istisno bo‘lib, rejaning yarmini ham

¹⁷ Xorazm viloyati hokimligi ma‘lumotlari.

bajara olmadi. Umumiy holda Respublika bo'yicha quyosh energetikasi rivojlanishi ijobiy dinamikani ko'rsatmoqda. Biroq Toshkent shahridagi sekin sur'at sabablari o'rganilishi va bartaraf etilishi zarur. Muvaffaqiyatli viloyatlar tajribasi boshqa hududlarga tarqatilishi maqsadga muvofiq bo'lib, texnik va moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari kuchaytirilishi talab etiladi.

Tadqiqot ishining "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari" nomli 3-bobida yashil iqtisodiyotda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari o'rganilib, O'zbekistonda Integratsiyalashgan raqamli yashil iqtisodiyot modeli (IRYIM)ning rivojlanishi va ahamiyati ochib berilgan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni ekonometrik modellashtirish amalga oshirilgan.

"Integratsiyalashgan Raqamli – Yashil Iqtisodiyot Modeli" (IRYIM) – bu raqamli texnologiyalar va yashil (ekologik barqaror) iqtisodiyotni birlashtiruvchi innovatsion yondashuvdir. Hozirgi vaqtda bu atama umumjahon miqyosida aniq bir davlatga tegishli emas, lekin bir qator mamlakatlar raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyotni integratsiyalashgan holda rivojlantirish bo'yicha amaliy loyihalarni olib bormoqda.

IRYIM mehnat bozorida nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham tubdan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Yaratilayotgan yangi ish o'rinlari yuqori malaka, ijodiy tafakkur va uzluksiz o'rganish qobiliyatini talab qiladi. Bu o'zgarish O'zbekistonning demografik imtiyozlaridan maksimal foydalanish imkoniyatini yaratadi. Yosh va imli aholi qatlami yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirishga qodir bo'lib, innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etishda faol rol o'ynaydi. Yuqori sifatli ish o'rinlarining yaratilishi "miyalar oqimi" muammosini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda yuqori daromadli va intellektual jihatdan qoniqarli ish imkoniyatlari paydo bo'lishi yoshlarni chet elga ketishdan to'xtatadi va hatto qaytishga undaydi.

6-jadval

IRYIMni moliyalashtirish manbalari¹⁸

Moliyalashtirish turi	Hajmi (mlrd doll)	Ulushi (%)	Asosiy yo'nalishlar
Davlat byudjeti	4.5	30%	Infratuzilma, ta'lim
Xususiy investitsiya	6.1	40%	Texnologiya, ishlab chiqarish
Xalqaro kreditlar	2.3	15%	Yashil loyihalar
Yashil obligatsiyalar	1.5	10%	Qayta tiklanadigan energiya
Venture kapital	0.8	5%	Startuplar, innovatsiya
JAMI	15.2	100%	

Yangi iqtisodiy sektorlarning rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablar qo'yadi. An'anaviy ta'lim dasturlari o'rniga amaliy ko'nikmalar, kritik tafakkur va

¹⁸ Stat.uz ma'lumotlari hamda Yashil iqtisodiyot platformasiga joylashtirilgan hisobotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

innovatsion yondashuvni rivojlantiradigan dasturlar zarur bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida yangi mutaxassisliklar – data science, raqamli yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, raqamli marketing, aqlli tizimlar boshqaruvi kabi yo'nalishlar ochilishi talab qilinadi.

6- jadvaldagi ma'lumotlaridan ko'rinadiki model uchun asosiy moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirib olish samaradorlikka xizmat qiladi.

